

UDK: 801045

**“BROTHER” - “AKA/UKA” QARINDOSHLIK OTI ATAMASINING  
FUNKSIONAL - SEMANTIK TADQIQI****Ochilova Gulnora Ulashevna,***Samarqand davlat chet tillar instituti Ingliz tili nazariy aspektlari**kafedrası assistent o‘qituvchisi, PhD**Mail: [gulnoraochilova0987@gmail.com](mailto:gulnoraochilova0987@gmail.com)**<https://orcid.org/0000-0001-8082-5384>*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz tilidagi *brother* leksemasi hamda o‘zbek tilidagi *aka* va *uka* qarindoshlik atamalarining funksional-semantik xususiyatlari qiyosiy-lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu leksemalarning semantik tuzilishi, etimologik manbalari, qo‘llanish doirasi hamda nutq jarayonidagi funksional imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, “*aka-uka*”, “*elder brother*”, “*younger brother*” kabi birliklarning semantik maydoni va ularning qarindoshlik munosabatlarini ifodalashdagi o‘ziga xos jihatlari ochib beriladi. Maqolada ingliz va o‘zbek tillarida qarindoshlik terminlarining differensial va umumiy belgilarini aniqlash orqali ularning lingvokulturologik hamda semantik xususiyatlari asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari qarindoshlik atamalarining til tizimidagi o‘rni hamda ularning semantik rivojlanish mexanizmlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** qarindoshlik terminlari, *brother*, *aka*, *uka*, semantik tuzilish, funksional-semantik tahlil, kinship terminology, semantik maydon, qiyosiy tilshunoslik.

**Annotation.** This article provides a functional and semantic analysis of the kinship term *brother* in English and its Uzbek equivalents *aka* and *uka*. The study examines the semantic structure, etymological origins, and functional usage of these lexical units in both languages. Special attention is given to the semantic field of expressions such as *elder brother*, *younger brother*, and the Uzbek compound *aka-uka*, revealing their role in expressing kinship relations. The research highlights the similarities and differences between English and Uzbek kinship terminology, demonstrating how cultural and linguistic factors influence the development and use of these terms. The findings contribute to a deeper understanding of kinship vocabulary within the framework of comparative linguistics and functional semantics.

**Keywords:** kinship terms, *brother*, *elder brother*, *younger brother*, *aka*, *uka*, semantic structure, functional semantics, comparative linguistics, kinship terminology.

**Аннотация.** В данной статье проводится функционально-семантический анализ английской лексики *brother* и её узбекских эквивалентов *aka* и *uka*, обозначающих родственные отношения. В исследовании рассматриваются семантическая структура, этимология и особенности функционирования этих лексических единиц в английском и узбекском языках. Особое внимание уделяется семантическому полю выражений *elder brother*, *younger brother* и узбекского сочетания *aka-uka*, а также их роли в передаче родственных отношений. В статье выявляются сходства и различия в системе родственных терминов двух языков и раскрывается влияние лингвокультурных факторов на их формирование и употребление. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию семантики и функционирования терминов родства в сравнительно-лингвистическом аспекте.

**Ключевые слова:** термины родства, старший брат, младший брат, семантическая структура, функциональная семантика, сравнительное языкознание.

**Kirish.** Ingliz tilidagi “*brother*” leksemasi o‘zbek tilidagi “*aka*” hamda “*uka*” leksemasining semantik maydon qamroviga birdek mos kelishi mumkin, boisi hindyevropa tillaridan farqli ravishda turkiy tillarda “*brother*”-“*aka*” va “*brother*”-“*uka*” ma’nolari alohida leksik birliklar (mos ravishda “*elder brother*” hamda “*little brother*”

birikmalari mutanosib muqobillikni hosil qiladi) yordamida ifodalanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, "brother"- "aka/uka" tushunchasining semantik tarkibi murakkab tuzilishga ega bo'lib, u "katta aka" va "kichik uka" ma'nolarini o'z ichiga oladi.

Etimologik lug'atda ingliz tilidagi "brother" quyidagicha ta'riflanadi: "Aka (yoki uka) – bu so'z erkak kishini, bir ota-onadan tug'ilgan boshqa shaxsga (jinsidan qat'iy nazar) bo'lgan qarindoshlik munosabati asosida bildiradi. Ingliz tilidagi brother so'zi qadimgi inglizcha broþor shaklidan kelib chiqqan bo'lib, u esa o'z navbatida qadimgi germancha brothar formasidan olingan (bu so'zlar norvegcha broðir, daniycha broder, qadimgi frizcha brother, gollandcha broeder, qadimgi yuqori nemischa bruodar, nemischa Bruder, gotcha bróþar shakllarida ham mavjud). Bu so'zlar umumiy hind-yevropa ildizi bhrater- ga borib taqaladi Mazkur so'z hind-yevropa tillar oilasida barqaror shaklda saqlangan bo'lib, sanskrit tilida bhrátár-, yunon tilida phratér, lotin tilida frater shaklida uchraydi. Ma'lumot o'rnida, vengr tilidagi barát (do'st) so'zi slavyan tillaridan, turk tilidagi birader esa fors tilidan kirib kelgan.

Ingliz tilida "aka yoki uka – ya'ni bir nasldan bo'lgan erkak kishi" degan ma'no XIV asr oxirlaridan boshlab qayd etilgan. "Faqirlik (mendikant) ordeni a'zosi" degan diniy-ijtimoiy ma'no esa taxminan 1500-yillardan boshlab ishlatilgan. Yana bir konnotatsiyasi sifatida, bir erkak kishi tomonidan boshqa erkakka do'stona murojaat tarzida ishlatilishi 1912-yildan boshlab AQSh slangida qayd etilgan. Ayniqsa, bu shakl afro-amerikaliklar orasida 1973-yildan boshlab keng tarqalgan. O'zbek tilining etimologik lug'atida esa "aka"ga quyidagicha ta'rif berilgan: "Aka – oldin tug'ilgan o'g'il farzand *Akam go'dakligidayoq dunyodan o'tgan*. Bu ot qadimgi turkiy tildagi "Yoshi katta bo'l-" ma'nosini anglatgan *aq-* fe'lidan *-a* qo'shimchasi bilan yasalgan (ESTYA, I, 122; DS, 48); o'zbek tilida *q* undoshi *k* undoshiga, *a* unlilari *ä* unlilariga almashgan: *aq-a = äkä*".

**Metodologiya.** Ingliz tilida ushbu ma'no yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, *elder brother, little brother, younger brother, brothers* kabi birliklar orqali ifodalanadi. O'zbek tilida esa bu tushuncha og'a-ini, aka-uka leksik birliklari orqali beriladi. Shuni ham alohida qayd etib o'tish lozimki yuqorida sanab o'tilganlardan: "brothers" – "aka-uka" birliklarining semantik tuzilishi "elder brother" – aka hamda "little brother" – uka birliklarining semantik tuzilishi nuqtayi nazardan farqlanadi.

"Brothers" – "aka-uka" qarindoshlik oti atamasining semantik tuzilishida "katta aka" va "kichik uka" belgilari bir-biri bilan qo'shilib, yoshga oid farqlarni neytrallash xususiyatiga ega. Shu sababli, "brothers" – "aka-uka" tushunchasining semantik maydoni "katta aka" va "kichik uka" ma'nolarini ham bir vaqtda qamrab oladi. Shuningdek, "brothers" – "aka-uka" qarindoshlik oti atamasi semantik tuzilishining yana bir muhim jihati, ushbu semantik mazmunida mavjud bo'lgan ikki ma'no (ya'ni, "aka" va "uka") bir ota-onaga mansub aka-ukalarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Ushbu semantik birlik tor ma'noda quyidagi uchta semantik guruhga ajratilishi mumkin:

“Bir ota-onadan tug‘ilgan aka-ukalar”

“Bir otadan, har xil onadan tug‘ilgan aka-ukalar”

“Bir onadan, har xil otadan tug‘ilgan aka-ukalar”

Yuqoridagi uch turkumga aka-uka qarindoshlik munosabati ingliz tilida consanguinity (qon-qarindoshlik)dan, kinship (qarindoshlik aloqasi), blood relative (qon-qarindosh), native (tug‘ma), half-brother (o‘gay aka/uka), half-blood (yarim qarindosh)gacha bo‘lgan differentsiallashuvchi atamalar orqali ifodalanadi<sup>188</sup>. O‘zbek tilida esa “bitta ota-onadan tug‘ilgan aka-uka” ma’nosi tug‘ishgan so‘zi orqali beriladi. O‘zbek tilidagi tug‘ishgan atamasi ingliz tilidagi parenté so‘ziga mos kelib, “bitta ota-onadan tug‘ilgan farzandlar” ma’nosini anglatadi. Bu so‘z jinsga bog‘liq bo‘lmagan holda ishlatiladi, ya’ni u aka yoki uka, opa yoki singil ma’nolarini birdek o‘z ichiga oladi. Bu hodisa semantik neytrallashtiruv natijasi bo‘lib, so‘z tarkibidagi jins bilan bog‘liq belgilarning ma’lum darajada yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. Bitta otadan, har xil onadan tug‘ilgan aka-uka va opa-singillar tushunchasi ingliz tilida half-brother, half-sister kabi atamalar orqali ifodalanadi. Biroq, bu ma’noga ega bo‘lgan funksional va semantik ekvivalentlar o‘zbek tilida bir leksik birlik ko‘rinishida mavjud emas. Bitta onadan, har xil otadan tug‘ilgan farzandlar tushunchasi tahlil qilinayotgan tillarda ta’riflovchi iboralar orqali ifodalanadi, ya’ni ushbu ma’noni ifodalash uchun murakkab so‘z birikmalari qo‘llanadi. Masalan, ingliz tilida “step-brother” – o‘zbek tilida “o‘gay o‘g‘il”, “o‘gay uka” ma’nolarida ishlatiladi.

O‘zbek va ingliz tillari lug‘at tarkibida xorijiy (o‘zlashma) so‘zlarning kichik bir qatlami ham mavjud, ularning ayrimlari bevosita qarindoshlik otlari atamalar bilan bog‘liq bo‘lib, shaxslar o‘rtasidagi oila munosabatlarini ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, fors-tojik tilidan o‘zlashgan birodar so‘zi o‘zbek tilida “akaukaday do‘st” ma’nosida qo‘llanadi. Ushbu so‘z murojaat shaklida ishlatilganda qarindoshlik ma’nosini anglatmaydi, balki nutq yo‘naltirilgan shaxsni bildiradi<sup>190</sup>. Ingliz tilida “elder brother” birikmasi orqali “aka” tushunchasi ifodalanadi, ba’zan esa olmosh qo‘shilishi bilan kengayishi mumkin: “my elder brother” (mening akam). “Aka” atamasining semantik tuzilishida “katta” va “erkak jinsi” xususiyatlari oiladagi undan keyingi farzandlarga nisbatan ularning jinsidan qat’iy nazar ustunlik qiladi. Ko‘pgina turkiy tillarda “aka” tushunchasi aka leksikasi orqali ifodalanadi. Bu so‘z ko‘p ma’noli va ko‘p funksiyali bo‘lib, uning asosiy ma’nolaridan biri “katta aka”dir.

Nutq jarayonida aka so‘zi murojaat shaklida ishlatilishi mumkin, bunda u murojaat qilinayotgan shaxsni anglatuvchi qo‘shimcha ma’noga ega bo‘ladi. Ingliz tilining lug‘aviy manbalarida esa elder brother so‘zi yuqoridagi ma’nolardan tashqari, “ota tarafidan katta qarindosh”, ya’ni “amaki”, shuningdek, “aka-ukalar ichida eng kattasi” ma’nolarini ham anglatishi qayd etilgan.

“Katta aka” tushunchasining semantik tuzilishida “katta”, “o‘rtancha” va “kichik” xususiyatlari o‘zaro birikadi. Yosh darajasi nuqtayi nazaridan “katta aka” turli xil ma’nalarga ega bo‘lishi mumkin.

*He loved him—that part was simple—and feared for him, and sometimes felt as much his **older brother** and protector as his friend* [H. Yanagihara 2015: 761].

Boshqa “katta aka” ma’nolarining ifodalanishi esa tavsifiy usulda amalga oshiriladi – katta, eng katta (eng yoshi katta), o‘rtancha (o‘rtancha), kichik, eng kichik (eng kichigi) so‘zlari yordamida.

Eng katta aka – barcha aka-ukalar orasida eng yoshi kattasi. O‘rtancha aka – katta akadan yoshroq, lekin boshqa aka-ukalardan yoshi kattaroq.

Kichik aka – katta akadan yoshroq, lekin boshqa aka-ukalardan ham yoshroq.

“O‘rtancha aka” atamasining o‘ziga xos tuzilish xususiyati shundaki, u «murojaat qilinayotgan shaxsdan katta, biroq uning boshqa katta akalaridan yoshroq aka» degan ma’noni anglatadi. Bu tushuncha ikki darajadagi yosh mezonini o‘z ichiga oladi: 1) “aka”; 2) “uka”. “Aka” atributi “murojaat qilinayotgan shaxsning undan katta bo‘lgan boshqa akasiga nisbatan”, “uka” esa “murojaat qilinayotgan shaxsning boshqa akalaridan eng kichigi bo‘lgan akasiga nisbatan” belgilanadi. Ushbu atama ko‘pincha ko‘p farzandli oilalarda, ayniqsa, o‘g‘il farzandlar ko‘p bo‘lgan oilalarda uchraydi.

*Biz... biz **aka-ukamiz-a**, Orif aka? Men singlingizman, shundaymi? – dedi u negadir tovushi qaltirab* [A. Muxtor 2018: 43].

**Natija va muhokama.** Bu termin nutq jarayonida murojaat shaklida ishlatiladi va ko‘pincha tinglovchiga nisbatan qo‘llaniladi. Ingliz tili leksikografik manbalarida esa “aka” tushunchasi yuqoridagi ma’nolardan tashqari, otaning katta akasini anglatib, “amaki” yoki “katta akalar ichida eng kattasi” ma’nosida ham qo‘llanishi qayd etilgan. Ingliz tilida “younger brother” (uka) atamasi ba’zan “jiyan” (nephew) ma’nosini ham anglatadi. Chunki “uka” ingliz tilidagi boshqa terminlar bilan kohiponimik ekvivalent hisoblanadi: “first” va “nephew”. Ularning stilistik jihatdan farqlanishi shundaki, “younger brother” (uka) “akaning jiyani”ni, “first” esa “opaning jiyani”ni bildiradi. Bundan tashqari, “younger brother” atamasi ko‘pincha ayollar nutqida keng qo‘llanadi. Ayollar kimgadir murojaat qilish jarayonida “uka” atamasini o‘zidan yoshroq shaxslarga nisbatan, ya’ni nutqdagi tinglovchiga murojaat qilish funksiyasida ishlatiladi. Ko‘pgina turkiy tillarda “uka” ma’nosi ini atamasi orqali ifodalanadi. Bu atama, asosan, qipchoq hamda ayrim shimoli-sharqiy turkiy tillar guruhiga xosdir. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda ham ini shakli “uka” ma’nosida uchraydi.

“Borther” – “aka-uka” sinonimik qatoriga mansub so‘zlar bilan “Elder and younger brother” – “katta aka va kichik uka” tushunchalari o‘rtasida ba’zi farqlar mavjud. Bu farqlar, asosan, aka-uka birikmasining semantik tuzilishida tabiiy jins belgilarining (“erkak” va “ayol”) mavjudligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu belgi “katta aka va kichik uka” tushunchasining semantik tuzilishiga xos emas. Bu shuni anglatadiki, “aka-uka” atamasi

“aka-singil” ma’nosida ham qo‘llanish huquqiga ega, biroq “katta aka va kichik uka” birikmasi bunday qo‘llanma imkoniyatiga ega emas. O‘zbek tilida “uka” va “ini” so‘zlari “kichik aka” (ya’ni, uka) ma’nosini anglatish uchun ishlatiladi, biroq ulardan eng keng qo‘llaniladigani – “uka”dir. Boshqa qarindoshlik atamaları kabi, “uka” ham polisemantik va multifunksional tushuncha bo‘lib, turli nutqiy kontekstlarda turlicha tovushlash shakllarida uchrashi mumkin. Ushbu atama nutqda murojaat shakli sifatida ishlatiladi va ba’zan o‘z egasi bilan qarindoshlik munosabatlarini bevosita bildirmaydi.

“Uka” so‘zi “kichik aka” ma’nosidan tashqari, quyidagi ma’nolarda ham qo‘llaniladi:

“jiyan” (aka yoki opaning farzandi), “singil” (ba’zi kontekstlarda),

“qayni uka” (katta akasining xotini tomonidan ishlatilsa), “qayni uka” (opaning eri tomonidan ishlatilganda),

“yoshroq erkak kishi” (umuman yosh jihatdan kichik bo‘lgan har qanday erkakka nisbatan).

*Yoshlik qilyapsan, uka, – deb ming‘illardi chol, – gapimga ishon, o‘n to‘qqiz yildan beri shu ishdaman* [A,Muxtor 2018: 375].

Ko‘rib chiqilgan barcha ma’nolar “yosh jihatdan kichiklik” mezoniga asoslangan bo‘lib, bu tushuncha multifunksional va polisemantik xususiyat kasb etadi. O‘zbek tilida “uka” so‘zi erkaklar va ayollar nutqida teng darajada qo‘llaniladi. Bu jihatdan “ini” atamasi “uka” so‘zidan farqlanadi. “Ini” asosan ayollar nutqida yoshroq shaxslarga murojaat shakli sifatida keng qo‘llaniladi va ba’zi hollarda uning dastlabki semantik ma’nosi yo‘qolib, umumiy murojaat shakliga aylanadi. Sinonimik qatorning teng huquqli a’zolari sifatida “uka” va “ini” atamalarining semantik tuzilishi “kichik”, “yoshroq” kabi umumiy xususiyatlar bilan belgilanadi. Biroq bu, ular bir xil semantik tuzilishga ega degani emas. Aksincha, “uka” va “ini” semantik tuzilmalari o‘zaro farqlanadi. Ularning asosiy farqlantiruvchi xususiyati tabiiy jins (gender) belgisi bilan bog‘liq:

“Uka” so‘zining semantik tarkibida “erkak jins” va “ayol jins” belgilarining birgalikda mavjudligi kuzatiladi. “Ini” so‘zining semantik tarkibida esa faqat “erkak jins” belgisi ustunlik qiladi. Shu bois, “uka” so‘zi erkak va ayol kishilarga nisbatan ishlatilishi mumkin, “ini” esa faqat erkak jins vakillariga nisbatan qo‘llaniladi.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqot natijalari ingliz va o‘zbek tillarida qarindoshlik terminlarining semantik va funksional xususiyatlari o‘ziga xos tizimga ega ekanligini ko‘rsatadi. Tahlil jarayonida ingliz tilidagi *brother* leksemasi o‘zbek tilidagi *aka* va *uka* atamalarining umumiy semantik maydonini qamrab olishi aniqlanib, turkiy tillarga xos bo‘lgan yoshga asoslangan differentsiallashtirish ingliz tilida alohida leksik birliklar yoki tavsiflovchi birikmalar orqali ifodalanishi kuzatildi. Shuningdek, *elder brother*, *younger brother*, *brothers* kabi birliklar hamda o‘zbek tilidagi *aka*, *uka*, *aka-uka* leksemalarining semantik tuzilishi qarindoshlik munosabatlarini ifodalashda turli darajadagi umumlashtirish va differentsiallashtirish xususiyatlarini namoyon etadi. Tadqiqot davomida

mazkur qarindoshlik atamalarining polisemantik va multifunksional xususiyatga ega ekanligi, ularning nafaqat biologik qarindoshlikni, balki nutq jarayonida murojaat shakli sifatida ijtimoiy-madaniy munosabatlarni ham ifodalashi aniqlandi. Bundan tashqari, o‘zbek tilida yosh mezoni asosiy semantik belgi sifatida faol bo‘lsa, ingliz tilida bu belgi ko‘pincha kontekstual yoki qo‘shimcha birliklar yordamida aniqlashtiriladi. Umuman olganda, ingliz va o‘zbek tillaridagi qarindoshlik terminlarini qiyosiy o‘rganish ularning lingvokulturologik xususiyatlarini, semantik rivojlanish jarayonini hamda til tizimidagi funksional imkoniyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari qarindoshlik terminologiyasini o‘rganish, qiyosiy tilshunoslik, leksikologiya va lingvokulturologiya sohalarida olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ochilova G. QARINDOSHLIK OTLARI ATAMALARI TADQIQINING ASOSIY YO‘NALISHLARI TAHLILI //Journal of Tamaddun Nuri. – 2025. – T. 3. – №. 66. – С. 174-177.
2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – B. 254.
3. Ulashevna O. G. “SISTER-IN-LAW”“QAYNOPA/QAYNISINGIL” QARINDOSHLIK OTI ATAMASINING FUNKSIONAL-SEMANTIK TADQIQI //Инновационные методики в обучении иностранным языкам: глобальные тенденции и опыт университетов шёлкового пути. – 2026. – Т. 1. – С. 559-562.
4. Ulashevna O. G., Tulenovna A. C. FUNCTIONAL-SEMANTIC STUDY OF THE KINSHIP TERMS “BROTHER-IN-LAW”“QAYNOG‘A/QAYNI” //Инновационные методики в обучении иностранным языкам: глобальные тенденции и опыт университетов шёлкового пути. – 2026. – Т. 1. – С. 103-106.
5. Англо-русский словарь. – М.: Изд-во «Русский язык», 1976. – С. 17–20.
6. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные. – М.: Наука, 1974. – С. 70.
7. Ўзбек тили изоҳли луғати. – М., 1980. Т. I-II. – В. 24.